



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



2021-YIL UCHUN

FAN VA INNOVATSIYA - BARQAROR RIVOJLANISH OMILI




Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-son qarori mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyida tayanch doktorantura va doktoranturasi mavjud institutlar soni, ularda tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar, bitiruvchilar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar va ulardagi xodimlar soni hisobot yilida ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar doirasida keltirilgan. Shu bilan birga hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida innovatsiyalar joriy qilgan tashkilotlar soni va ularda joriy qilingan innovatsiyalar soniga oid statistik ma'lumotlar keltirilgan.



2021-YILDA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM TIZIMI – TAYANCH DOKTORANTURASI MAVJUD TASHKILOTLAR

Andijon viloyatida 2021-yil oxiriga oliy ta'limdan keyingi ta'lim – tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni 5 tani tashkil etdi. Ulardan 4 tasi oliy ta'lim tashkilotlari va 1 tasi ilmiy tadqiqot ishlari olib boruvchi tashkilot.




Ma'lumot uchun

Ilmiy tadqiqot (ilmiy tadqiqot ishlari) – yangi bilim va ularni qo'llash usullarini olishga qaratilgan ijodiy faoliyat.

Ilmiy amaliy tadqiqot – aniq ilmiy maqsadlarga erishish uchun fundamental ilmiy tadqiqot natijalarini qo'llashga qaratilgan tadqiqotlar.

TAYANCH DOKTORANTURASI MAVJUD INSTITUTLARIDA TAHSIL OLUVCHILAR SONI, (birlik)



Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil olayotgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni 347 nafarni tashkil etgan holda, o'tgan 2017-yil bilan taqqoslaganda ular soni 269 nafarga yoki 4,4 barobarga ko'paygan.

Tahsil olayotgan jami 347 nafar izlanuvchilarning 330 nafari viloyatda faoliyat ko'tsatayotgan oliy ta'lim tashkilotlarida va qolgan 17 nafari ilmiy tashkilotlarda izlanishlar olib bormoqdalar.



Andijon viloyati

347

Andijon shahar


248

Andijon tumani


99

TAYANCH DOKTORANTURASI MAVJUD INSTITUTLARIGA QABUL QILINGAN IZLANUVCHILAR SONI, (nafar)

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha tayanch doktorantura institutlari mavjud tashkilotlariga 192 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilari qabul qilingan bo'lib, ulardan 183 nafari oliy ta'lim tashkilotlarida va 9 nafari ilmiy tashkilotlarida tahsil oladilar. 2017-yilda qabul qilingan izlanuvchilar soni 35 nafardan iborat bo'lgan. O'tgan davr mobaynida ular soni 157 nafarga yoki 5,5 barobarga ko'paygan.




Qabul qilingan jami 192 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilari sonidan 72 nafari yoki 37,5 % ni ayollar tashkil etadi. O'tgan 2020-yilda ular soni jami 73 nafardan iborat bo'lib, ulardan 20 nafari yoki 27,4 % ayol izlanuvchilar hissasiga to'g'ri kelgan. Yil davomida o'sish ko'rsatkichi 2,6 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin



2021-YILDA BITIRGAN FALSAFA DOKTORI DARAJASI IZLANUVCHILARI SONI, (nafar)

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha tayanch doktorantura institutlari mavjud tashkilotlarida 53 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilari bitirdilar. Ulardan 50 nafari oliy ta'lim tashkilotlarining va qolgan 3 nafari ilmiy tashkilotlarning bitiruvchilari hisoblanadilar.

2017-yilda falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni 11 nafardan iborat bo'lib, o'tgan davr mobaynida ular soni 4,8 barobarga ko'paygan.



2021-yilda bitirgan jami 53 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilaridan 15 nafari yoki 28,3 % ni ayollar tashkil etadi. 2020-yilda bitiruvchilar soni jami 42 nafardan iborat bo'lib, ulardan 11 nafari ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.

Jami bititirgan 53 nafar falsafa doktori darajasi izlanuvchilari sonidan 13 nafari yoki 24,5 % dissertatsiya himoya qilgan.

2020-yil

31

Erkaklar

11

Ayollar



2021-yil

38

Erkaklar

15

Ayollar

2021-YILDA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM TIZIMI – DOKTORANTURA MAVJUD TASHKILOTLAR SONI

Andijon viloyatida 2021-yil oxiriga oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni 3 tani tashkil etdi. Ulardan 2 tasi oliy ta'lim tashkilotlari va 1 tasi ilmiy tadqiqot ishlari olib boruvchi tashkilot. 2019-yilda ular soni viloyat bo'yicha 2 tani tashkil etgan.

Tashkilotlar soni, *(birlik)*



Doktorantlar soni, *(nafar)*




Andijon viloyatida 2021-yil oxiriga oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlaridagi fan doktori darajasi izlanuvchilari soni jami 17 nafarni tashkil etgan. Jami izlanuvchilarning 13 nafari oliy ta'lim tashkilotlarida va qolgan 4 nafari ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida faoliyat olib boradilar.

Fan doktori izlanuvchilari soni 2019-yil yakuni bo'yicha 4 nafarga to'g'ri kelgan. O'tgan davr oralig'ida ular soni 4,3 barobarga ko'paygan.

2021-YIL YAKUNI BO'YICHA DOKTORANTURAGA QABUL QILINGAN VA BITIRGANLAR SONI, (nafar)

Andijon viloyatida 2021-yilda fan doktori darajasi bo'yicha 10 nafar izlanuvchilar qabul qilingan. Ulardan 8 nafari oliy ta'lim tashkilotlarida va qolgan 2 nafari ilmiy tadqiqot tashkilotlarida tahsil oladilar. O'tgan 2019-yilga nisbatan ular soni 5 barobarga ko'paygan.

2021-yilda fan doktori darajasi bo'yicha 1 nafar izlanuvchi bitirgan. Doktorant viloyatdagi ilmiy-tadqiqot tashkilotida tahsil olgan.




Ma'lumot uchun



Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch *doktorantura*, *doktorantura* va *mustaqil izlanuvchanlik* asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

2021-YIL YAKUNI BO'YICHA DOKTORANTURAGA QABUL QILINGAN LAR SONI, (nafar)

2021-yilda fan doktori darajasi bo'yicha 10 nafar izlanuvchilar qabul qilingan. Jumladan: Ijtimoiy fanlar bo'yicha 4 nafar, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha 3 nafar, tabiiy fanlar bo'yicha 1 nafar, texnika fanlari bo'yicha 1 nafar va gumanitar fanlar bo'yicha 1 nafar.



Ma'lumot uchun



Doktorantura – fan doktori (Dostor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli

ISH TURLARI BO'YICHA ILMIY TADQIQOT VA TAJRIBA KONSTRUKTORLIK ISHLANMALAR BAJARILISHI

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar soni 6 tani tashkil etdi. Ulardan 4 tasi ilmiy-tadqiqot ishlari, hamda 2 ta loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar.



(birlik)

(mln. so'm)

Ilmiy tadqiqot va tajriba
konstruktorlik ishlar bajargan
jami tashkilotlar soni

Shu jumladan

Ilmiy-tadqiqot ishlari

Loyiha –konstruktorlik va
texnologik ishlar



6



7918,5



4



5400,0



2




2518,5

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tadqiqotchilar soni 411 nafarni tashkil etdi. Ulardan 164 nafari yoki 39,9 % ayollar hissasiga to'g'ri keladi.

60,1 %
erkaklar



39,9 %
ayollar



ILMIY TADQIQOT VA TAJRIBA- KONSTRUKTORLIK ISHLANMALAR BAJARGAN XODIMLAR SONI, (nafar)

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarni bajargan ilmiy-pedagogik xodimlarini qo'shgan holda ilmiy daraja va ta'lim darajasi kesimida xodimlar soni 2323 nafardan iborat. Ulardan 923 nafarini ayollar tashkil etadi.

Tadqiqotchilardan 515 nafari oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichida, hamda 11 nafari bakalavriat bosqichida tahsil olgan

Jami xodimlar

2323

Fan doktorlari

106

Fan nomzodlari

403

Falsafa doktorlari

146



ANDIJON VILOYATIDA 2021- YILDA INNOVATSION FAOLLIK

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 134 ta tashkilot tomonidan innovatsion jarayon kuzatilgan. Ulardan 8 tasi 2021-yilda o'zlashtirilgan, 24 tasi 2019-2020- yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan, hamda 107 tasi 2018-2020- yillar davomida takomillashtirilgan.



Jami innovatsion faoliyat

134

2021-yilda o'zlashtirilgan

8

2019-2020-yillarda birinchi
marta o'zlashtirilgan

24

2018-2020-yillarda
takomillashtirilgan


107

Ma'lumot uchun



Innovatsiya – ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi, realizatsiya qilish jarayonida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmatlar yoki jarayon, shuningdek ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy qarorlari, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xarakterdagi, texnologiyalarning, mahsulotlarning va xizmatlarning bozorlarda yangilanishiga yordam berilishi tushuniladi.

ANDIJON VILOYATIDA 2021- YILDA INNOVATSION FAOLIYAT KO'RSATGAN TASHKILOTLAR SONI, (birlik)



Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 134 ta tashkilot va korxonalar tomonidan o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar amalga oshirilgan.


Viloyat bo'yicha jami yaratilgan innovatsion mahsulotlardan 73 tasi Andijon shahrida amalga oshirilgan bo'lib, viloyatdagi eng yuqori natijani qayd etgan.

2021- YILDA O'Z KUCHI BILAN ISHLAB CHIQARILGAN INNOVATSION MAHSULOTLAR, ISHLAR VA XIZMATLAR XAJMI, (QQS va aksizsiz, mln so 'm)

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 134 ta tashkilot va korxonalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xajmi jami 4 806 697,0 mln. so 'mni tashkil etdi.

Jumladan 83688,4 mln. so'm 2021-yilda birinchi marta o'zlashtirilgan innovatsiyalar, 112220,0 mln. so'm 2019-2020-yillar davomida birinchi marta o'zlashtirilgan innovatsiyalar, hamda 4 610 788,6 mln. so'm 2018-2020-yillar davomida takomillashtirilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlardir.

2021-YILDA BAJARILGAN INNOVATSILAR XAJMI,




Ma'lumot uchun

Texnologilar, marketing yo'llari va ishlab chiqarishni tashkil etish usullarini oldin tashkilot tomonidan foydalanilmagan bo'lsa uni yangi joriy qilingan deb atasa bo'ladi. Texnologiyalar, marketing yo'llari va ishlab chiqarishni tashkil etish usullari joriy qilingandan so'ng 3 yilgacha innovatsiya deb hisoblanadi.

ANDIJON VILOYATIDA 2021- YILDA TEXNOLOGIK INNOVATSION FAOLIYAT KO'RSATGAN TASHKILOTLAR SONI

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 13 ta tashkilotda texnologik innovatsiyalar amalga oshirilgan. Ular tomonidan 36 ta innovatsiyalar amaliyotga joriy qilingan. Joriy qilingan innovatsilardan 35 tasi tashkilotning o'z mablag'i hisobidan va qolgan 1 tasi boshqa tashkilot tomonidan amalga oshirilgan.

Texnologik innovatsiyalar bo'yicha jami 53692,2 mln.so'm xarajatlar qilingan bo'lib, ulardan 53678,7 mln. so'm mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va qolgan 13,5 mln. so'm mablag' jarayon bilan bog'liq innovatsion xarajatlar hisoblanadi.



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va ximoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi.

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga (ITTKI) tadqiqotlar va (yoki) amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo'naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar kiradi.

Innovatsiya – ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi, realizatsiya qilish jarayonida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmatlar yoki jarayon, shuningdek ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy qarorlari, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xarakterdagi, texnologiyalarning, mahsulotlarning va xizmatlarning bozorlarda yangilanishiga yordam berilishi tushuniladi.

ANDIJON VILOYATIDA 2021-YIL YAKUNI BO'YICHA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

PRESS-RELIZNITAYYORLASH UCHUN MAS'UL:



Andijon viloyati statistika boshqarmasi



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



**Manzil: Andijon shahar
Milliy tiklanish ko'cha-36 a**



Telefon : (74) 224-82-69



www.andstat.uz

